

«MUṬAWWAL» ASARIDA BALOG‘AT ILMI MASALALARINING YORITILISHI

Askarov Abdurashid Murodjonovich

*O‘zbekiston xalqoro islom akademiyasi Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrası
o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Sa‘duddin Taftazoniyning balog‘at ilmiga oid «Muṭawwal» asari Qazviniyning «Talḥīṣu miftāḥi-l-‘ulum» asariga yozilgan sharh hisoblanib, mazkur asar bir muddat «Šarḥu-t-Talḥīṣ» nomi bilan atalgan. Sayyid Sharif Jurjoniy «Muṭawwal» asariga hoshiya yozib, uni «ushbu hoshiyalar «Talḥīṣu-l-miftāḥ»ning mashhur sharhi («Muṭawwal» asari)ga tegishli» ekanligini qayd etadi. Asarning Sayyid Sharif Jurjoniy tomonidan «Muṭawwal» deb ko‘rsatilmagani, uning bu nomi keyinchalik mashhur bo‘lganini ko‘rsatadi.

Taftazoniy o‘zining «Muḥtaşaru-l-ma‘āniy» asari muqaddimasida:

قد شرحت فيما مضى «تلخيص المفتاح» وأغنيته بالإصباح (MM, 9)

«Men oldin «Talḥīṣu-l-miftāḥ»ni sharhlab, uni «Işbāḥ» deb atadim» deb yozadi.

Lekin, asarning «Işbāḥ»nomi ommalashmagan. Aksincha, uni «Muṭawwal» deb nomlanishi keng tarqalgan. «Muṭawwal» so‘zi «uzaytirilgan, kengaytirilgan, batafsil bayon qilingan, mukammal¹» degan ma‘nolarni beradi.

Doktor Shavqiy Doyf «Talḥīṣ» asari xususida quyidagicha fikr bildiradi: «U (Taftazoniy) «Talḥīṣ» asarini ikki xil: Muṭawwal (uzun) va muxtasar (qisqa) shaklda sharhlagan va mazkur ikki sharhni ushbu ikki nom («Muṭawwal» va «Muḥtaşar») bilan atagan»².

Taftazoniy «Muṭawwal»da Sakkokiyning «Miftāḥu-l-‘ulum» kitobida keltirgan so‘zlarini tushunishdagi chigalliklarga ko‘p ishora qilgan. Qazviniy «Talḥīṣu miftāḥi-l-‘ulum» asarida bunga birinchi eshikni ochgan. Zero, uning «Talḥīṣ» asari Sakkokiy so‘zlarini tushunish, fikrlarini o‘qishga urinish hisoblanadi.

Sa‘duddin Taftazoniyning ikkinchi sharh asari hisoblangan «Muḥtaşar»ni ham mazkur nom bilan o‘zi atamagan. Bu nom muallif vafotidan keyin tarqalgan.

Hoji Xalifa «Kaşfu-z-zunun» asarida Sa‘duddin Taftazoniy haqida: «...u (Taftazoniy) ning birinchi sharhi «Muṭawwal» nomi bilan mashhur bo‘lgan bo‘lib, mazkur nom Taftazoniyning «Talḥīṣu-l-miftāḥ» asariga yozgan sharhiga berilgan eng mashhur nom» degan³.

«Muṭawwal» asari «Talḥīṣu-l-miftāḥ» asarining eng yaxshi sharhlaridan hisoblanadi. Bu asarning sharhlari ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, Taftazoniyning sharhi ommalashgan. Odamlar uni o‘qishga va u orqali balog‘at ilmidan ta‘lim berishga katta qiziqish bildirishgan. «Kaşfu-z-zunun»da keltirilishicha «Muṭawwal» asarini Amir

¹An-naim al-kabir.O.Nosirov, M.Yusupov, Y.Rahmatullayev, A.Nishonov. - Namangan. 425 b.

² شوقي ضيف. البلاغة تطور وتاريخ. - بيروت، 2008. - ص. 355.

³ الحاج خليفة. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون. - ج. 1. - بيروت: لبنان، 2008. - ص. 474.

Temur e'zozlab, Hirot darvozasiga tepasiga ostirib qo'ygan. Hasan ibn Muhammad shoh Fanoriy u haqida shunday degan:

ما صنف الناس في علمٍ وما جمعوا
مثل المطول في ضبطٍ وإيجاز

Odamlar bir ilmda «Muṭawwal» kabi,
Zabt (aniqlik) va mo'jazlikda asar yoza olmadi.

Taftazoniy «Muṭawwal» asarining muqaddimasida balog'at masalalarini yoritish borasidagi o'zining uslubi haqida shunday deydi: «Ushbu asar sharhi uchun noaniq narsalarga oydinlik kiritadigan, maxfiy xazinalarga borish yo'lini osonlashtiradigan ma'lumotlarni to'pladim. Avvalgi olimlar asarlarida xabar qilingan nafis durlarni, zakovatlilarning zehnlari bilan erishilgan bilimlarni, tavfiq nuri bilan o'zim yetib borgan nodir nuqtalarni hamda nozik satrlarni diqqat bilan jamladim. Undagi e'tirozlarni yo'qotishda adolat va insof yo'lidan bordim. Keltirilgan narsalarga munosabat bildirishda adolatsizlik va jabr yo'lidan chetlandim. «Miftāḥ» va «Izāḥ»dagi ko'p jumboqlarni yechishga ishora qildim. «Miftāḥ»ni sharhlashda fozil alloma Qazviniyning ayrim fikrlariga munosabat bildirdim va balog'at bilan shug'ullanganlarning kamchilikka yo'l qo'ygan joylarni ko'rsatdim. Ba'zi zaruriy narsalarni sharh qilishda bir toifaga taqlid qilmadim va aniq narsalarga ortiqcha tafsilot berish yo'lidan bormadim» (M, 65). Taftazoniyning tanlagan ushbu uslubi sababli asarning hajmi kengaygan, kattalashgan shuningdek, balog'atga oid masalalarni yoritish yo'llari turli bo'lgan.

Muallif «Muṭawwal» asari muqaddimasida sharh yozish sababini quyidagicha keltiradi:

لكن لما رأيت توفر رغبات المحصلين على تعلم هذا الكتاب و تحصيله، وامتداد أعناقهم نحو الإحاطة بجملة و تفاصيله، وأكثرهم قد حرموا توفيق الاهتداء إلى ما فيه من مطويات الرموز والأسرار، إذ لم يقع له شرح يكشف عن وجود خرائده الأستار، ترى بعض متعاطيه قد اكتفوا بما فهموه من ظاهر المقال، من غير أن يكون لهم اطلاع على حقيقة الحال، وبعضهم قد تصدوا لسلوك طرائقه من غير دليل، فأضلوا كثيرا و ضلوا عن سواء السبيل – اختلست من أثناء التحصيل فرصا، مع ما أتجرع من الزمان غصصا، وطفقت أقتحم موارد السهر غائصا في لجج الأفكار، و أنتقط فرائد الفكر من مطارح الأنظار، وبذلت الجهد في مراجعة الفضلاء المشار إليهم بالبنان، وممارسة الكتب المصنفة في فن البيان.

Tarjimasi: Ammo bu kitob asosida ta'lim berishga kirishgan kishilarning istaklarini ko'p ekanligini ko'rganimda, uning gaplari va tafsilotlarini o'rganishga kirishganlari, lekin o'sha kishilarning ko'pchiligi ushbu kitobdagi sir-asrorlarining asl mohiyatni anglashdan mahrum bo'lganlarini ko'rganimda, shu bilan birga mazkur kitobga uning nozik jihatlarini anglatuvchi sharh yozilmaganligi, ya'ni kitobning asl haqiqatini o'zlashtirmay turib, ushbu kitobni o'rganayotganlar undan o'zlari tushungan yuzaki ma'no bilan kifoyalanganlarini ko'rgach, shuningdek, ba'zilar hujjat-dalilsiz fikr bildirganlarning yo'lini tuta boshlaganlari, bu bilan o'zlari adashib, boshqalarni ham adashtirganlarini ko'rgach ushbu kitobni yozishga bel bog'ladim. Ushbu kitobni o'rganishga bel bog'lab, unga ko'p vaqt sarflashga va fikrlar marjonini tizish uchun

tunlarni bedor o'tkazishga fozil allomalarning asarlarini o'rganish, ularning bayon ilmida yozgan kitoblarini tadqiq etishga kirishdim.

«Muṭawwal» asari matn, matndan so'ng uning sharhini keltirish usulida yozilgan. Natijada matn va sharh bir asar bo'lib ko'rinadi. Muallif ko'pincha asl matnni o'zi qo'shgan sharh va izohlarga ulagan, ularni alohida satrda ajratib ko'rsatmagan.

Sa'duddin Taftazoniy bu asarida, avvalo muallif matnini keltirgan va uni barcha jihatdan sharh qilishga e'tiborini qaratgan. U asarda bayon shartini tahqiq qilishda va ko'zda tutilgan jihatlarni chuqur aniqlashda avvalgi sharhning o'zi yetarli deb bilmasa, unga munosabat bildirgan. Lekin aniq o'rinlarga qisqa sharh bilan kifoyalangan, qiyin va noma'lum jihatlarni uzun va batafsil sharh qilgan.

«Talḥīṣu-l-miftāḥ» asari sharh qilinayotganda esa, uning asl manbasi Yusuf Sakkokiyning «Miftāḥu-l-'ulum» asari ekanini e'tibordan chetda qoldirmagan. «Talḥīṣu-l-miftāḥ» asarining sohibi Mahmud Qazviyniy esa o'zining mazkur asarini yozishda sharh qilinayotgan asar «Miftāḥu-l-'ulum»da kelgan Yusuf Sakkokiyning ba'zi qarashlariga e'tiroz bildirib, ularni tizimli ravishga tartibga solishga harakat qilgan. Shuningdek, u «Talḥīṣu-l-miftāḥ»da o'zigacha bo'lgan olimlarning, jumladan, Abdulqohir Jurjoniy va Mahmud Zamaxshariy fikrlarini keltirib, ularga ijobiy munosabatda bo'lgan, ayrim o'rinlarda esa e'tiroz bildirgan.

Sa'duddin Taftazoniy o'z navbatida Mahmud Qazviyniyning Yusuf Sakkokiy, Mahmud Zamaxshariy va boshqa balog'at namoyondalariga bergan e'tirozlariga munosabat bildirgan.

Qazviyniyning «Talḥīṣu-l-miftāḥ» asarida Sakkokiy va boshqa balog'at olimlari uslubini ba'zan o'zgacha tushunishi natijasida ularga bildirilgan noo'rin e'tirozlar, ularning fikrlarini xato talqin qilish, bir mavzuga tegishli bo'lgan fikrlarni boshqa o'rinda keltirilishi «Muṭawwal» asarining yozilishiga sabab bo'lgan omillardan biri sanaladi.

Qazviyniy tomonidan yo'l qo'yilgan ushbu kamchiliklar o'zining «Talḥīṣu-l-miftāḥ» asarida Jurjoniy va Zamaxshariyning qarashlarini keltirib sharhlagan o'rinlarda ko'zga tashlanadi. Chunki, Jurjoniy va Zamaxshariy fikrlarining mohiyatini ularning asarlarini sinchiklab o'rgangandan keyingina anglash mumkin. Ko'pincha ushbu ikki olimning qarashlari bir-biridan farq qiladi.

Sa'duddin Taftazoniy «Muṭawwal» asarini yozishda «Talḥīṣu-l-miftāḥ» asarida olimlarning qarashlariga bildirilgan e'tiroz va qisqartirgan joylarini o'rganib chiqib, boshqa balog'at olimlarining so'zlaridan dalillar keltirish orqali uning ba'zi qarashlari xatoligi borasida munosabat bildirgan.

Shu tariqa «Muṭawwal» asari balog'at olimlarining qarashlariga, ayniqsa, Sakkokiyning «Miftāḥu-l-'ulum» asarida keltirilgan qarashlariga sharh berishdan iborat bo'lgan. Lekin, buning barchasi Qazviyniyning bildirgan fikrlarini sharhlash jarayonida amalga oshirilgan. Taftazoniy Qazviyniyning fikrlarini sharhlagandan so'ng boshqa olimlarning qarashlariga munosabat bildirishga o'tgan.

Taftazoniy «Talḥīṣu-l-miftāḥ»ni sharhlashda unga Xolxoliy (vaf. 745/1344) va Zuzaniy (vaf. 792/1390) tomonlaridan yozilgan sharhlardan keng foydalangan⁴. Qazviniyning balogʻatga oid fikrlariga munosabat bildirishda ana shu sharhlardan keng foydalanib, oʻz qarashlarini dalillashda ulardan baʼzan iqtiboslar keltirgan. Misollar keltirishiga sabab «Talḥīṣu-l-miftāḥ» asari matnida kelgan uslubiy vositalarga oid boʻlgan ayrim xatolarni toʻgʻrilash va kamchiliklarni toʻldirish boʻlgan.

Taftazoniy bu ishni amalga oshirishda oʻz asaridan oldingi «Talḥīṣu-l-miftāḥ»ga bitilgan sharhlarini sinchiklab tadqiq qilib, xato joylarini bayon qilgan, ularni toʻgʻrilagan va mazkur qimmatli maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan «Muṭawwal» ensiklopediyasini tuzgan.

«Muṭawwal» asarida Qazviniyning «Izāḥ» asaridan koʻplab iqtiboslar keltirgani Taftazoniyning ushbu asarga boʻlgan eʼtiborining yuqori ekanini koʻrsatadi. Shuningdek, «Muṭawwal» asarida Qazviniyning ikkinchi balogʻat asari «Talḥīṣu-l-miftāḥ»da kelmagan balogʻat masalalarini muhokama qilgan. Chunonchi, «Muṭawwal» «Talḥīṣu-l-miftāḥ»ning eng mashhur va uzun sharhi sanaladi. «Talḥīṣu-l-miftāḥ»ni sharh qilmoqchi boʻlgan boshqa olimlar «Muṭawwal»ga murojaat qilishgan.

Saʼduddin Taftazoniy mazkur asarning masalalarini muhokama qilishga Qazviniy tomonidan balogʻat ulamolariga bildirilgan eʼtirozlarga munosabat bildirgani va undagi koʻp izohtalab oʻrinlarni ochib bergani haqida «Muṭawwal»ning muqaddimasida keltirib oʻtgan.

«Talḥīṣu-l-miftāḥ»da iboralar qisqa, undagi fikrlar muxtasar qilingan va koʻp dalil keltirilgan. Bu borada Qazviniyning «Izāḥ» asari Saʼduddin Taftazoniy uchun uning qarashlariga munosabat bildirishda katta yordamchi boʻlgan.

Saʼduddin Taftazoniy «Muṭawwal» asarida Qazviniyning «Talḥīṣu-l-miftāḥ», «Izāḥ» va Sakkokiyning «Miftāḥu-l-ʻulum» asarlaridagi balogʻatga oid fikrlarga qoʻshimchalar qoʻshgan.

Shuningdek, u Abdulqohir Jurjoniyning «Dalāilu-l-iʼjāz», «Asrāru-l-balāḡa», Zamaxshariyning «Asāsu-l-balāḡa», «Kaššāf», Murzuqiyning (vaf. 421/1030) «Šarḥu-l-himāsa», Xorazmiyning (vaf. 617/1220) «Zirāmu-s-siqāt», Ibn Asirning (vaf. 637/1239) «Al-maṣālu-s-sāir» va boshqa balogʻat olimlari asarlaridan iqtibos keltirgan. Shularning natijasida, Saʼduddin Taftazoniy «Muṭawwal»da keltirgan balogʻatga oid maʼlumotlar keng qamrovli boʻlgan va shuhrat qozongan.

Taftazoniyning mazkur asardagi uslubi deyarli barcha balogʻatga oid ilmiy qarashlar va fikrlarni qamrab olgan. Shu bilan birga, Taftazoniy ushbu asarda balogʻatga oid ilmiy qarashlarning aniqligiga va mukammalligiga katta eʼtibor qaratgan. Asar maʼlumotlarikoʻp boʻlgani uchun ularning aralashib ketish holatlari mavjud. Chunki, Taftazoniy asarda mavzuning boshini oxiriga, oxirini boshiga

⁴ الحاج خليفة. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون. - ج. 1. - بيروت: لبنان، 2008. - ص. 474.

bog‘lagan. Agar Sakkokiy va Qazviniyning matnida kelgusida kengroq tushuntirishga ishora kelgan bo‘lsa, Taftazoniy ularni sharhlashga o‘tib ketgan⁵.

Taftazoniyga bu borada yordam bergan narsa uning asar yozishdagi uslubidir. U sharh qilmoqchi bo‘lgan matnni yaxshilab tadqiq etib, undagi izohtalab joylarni belgilab olgan va unga oid boshqa ma‘lumotlarni ham to‘plagan.

U mazkur ma‘lumotlarni matn bilan yaxshilab bog‘laydi. Taftazoniy: «ushbu asarni sharh qilish uchun undagi qiyinchiliklarni va kamchiliklarni to‘ldiradigan va uni osonlashtiradigan ma‘lumotlarni to‘pladim» degan⁶.

Hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan ushbu asarlar bir necha marta Turkiya, Misr, Livan, Eron, Hindiston va boshqa davlatlarda qayta-qayta nashr qilingan. «Muṭawwal»ning zamonaviy nashrlari juda ko‘p. Ba‘zi nashrlari tahqiqat asosida ba‘zi bir nashrlari esa tahqiq qilinmagan holda nashr qilingan. «Muṭawwal» asari 1971-yil Misrning Qohira universiteti balog‘at fani ustoz, professori Doktor Abdulhamid Hindoviy tahqiqi ostida Bayrutda nashr etiladi.

Xulosa o‘rnida, Sa‘duddin Taftazoniy balog‘at ilmiga oid birinchi asarini o‘zi «Muṭawwal» deb nomlamagani ma‘lum bo‘ldi. Zamondoshlari ham mazkur asarni «Šarḥ» deb atashgan. «Muṭawwal» nomi asarga nisbatan keyinchalik shogirdlari va izdoshlari tomonidan berilgan. Sa‘duddin Taftazoniy balog‘at ilmiga oid birinchi asarini yozish jarayonida o‘z asaridan oldin «Talḥīṣu-l-miftāḥ» asariga bitilgan sharhlarini sinchiklab tadqiq qilib, ulardagi xato joylarini bayon qilgan, ularni to‘g‘rilagan va to‘ldirganhamda mazkur qimmatli ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan «Muṭawwal» ensiklopediyasini tuzgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. سعد الدين التفتازاني. الشرح المطول لتلخيص المفتاح. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2013. – 792 ص.
2. سعد الدين التفتازاني. مختصر المعاني شرح كتاب تلخيص المفتاح. – اسطنبول: دار الشفاء، 2017. – 704 ص.
3. سعد الدين التفتازاني. شرح مفتاح العلوم. – دمشق: دار تقوى الشام، 2020. – 793 ص.
4. ضياء الدين القالشي. التفتازاني وأراؤه البلاغية. دمشق-بيروت: دار النوادر، 2010. – 562 ص.
5. الزمخشري. الكشاف. – دمشق: دار تقوى الشام، 2020. – 793 ص. ج.1.
6. ابن بحر الجاحظ. كتاب البيان والتبيين. – مكتبة النور، 2006. – 444 ص.
7. الجرجاني. دلائل الإعجاز في المعاني. – القاهرة: المكتبة التوفيقية، 2005. – 716 ص.
8. أبو يعقوب السكاكي. مفتاح العلوم \ تحقيق د. عبد الحميد الهنداوي؛ علي جارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيام-المعاني-البديع. – القاهرة، 1999. – 539 ص.
9. جلال الدين القزويني. الإيضاح في علوم البلاغة المعاني والبيان والبديع. – لبنان: دار الكتب العلمية، 2003. – 415 ص.
10. بكري شيخ أمين. البلاغة العربية في ثوبها الجديد. – بيروت، 1984. – 198 ص.

⁵ . سعد الدين التفتازاني. المطول على التلخيص. . – مصر: سنده، 2015. – ص. 254، 66، 399-400.

⁶ . سعد الدين التفتازاني. المطول على التلخيص. . – مصر: سنده، 2015. – ص. 66.

11. عبد العزيز عتيق. علم البديع. – بيروت: دار النهضة العربية، 2015. – 248 ص.
12. بدوي طبانة. معجم البلاغة العربية في مجلدين. الطبعة الثالثة. – جدة: دار المنارة، 1988. – 781 ص.
13. أبو يعقوب السكاكي. مفتاح العلوم \ تحقيق د. عبد الحميد الهنداوي؛ علي جارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيام-المعاني-البديع. – القاهرة، 1999. – 539 ص.
14. أحمد الهاشمي. جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبديع. – بيروت: دار الإحياء التراث العربي، 2008. – 300 ص.
15. الفناري. حاشية على المطول. – بيروت: دار كتب، 2007. – 464 ص.
16. بكري شيخ أمين. البلاغة العربية في ثوبها الجديد. – بيروت، 1984. – 198 ص.
17. جلال الدين السيوطي. بغية الوعاة في طبقات اللغويين والنحاة. – ج. 2. – مصر، 1967. – 600 ص.
18. شوقي ضيف. البلاغة تطور وتاريخ. – بيروت، 2008. – 388 ص.
19. عبد العزيز عتيق. علم البيان. – بيروت: دار النهضة العربية، 1986م. – 226 ص؛
20. عبد العزيز عتيق. علم البديع. – بيروت: دار النهضة العربية، 2015. – 248 ص.
21. عبد العزيز عتيق. علم المعاني. – بيروت: دار النهضة العربية، 1985. – 226 ص.
22. عبد القاهر الجرجاني. أسرار البلاغة. – جدة: دار المدني، 1991. – 548 ص.
23. فضل حسن عباس. البلاغة – فنونها وأفنانها: علم المعاني. – عمان: دار الفرقان، 1997. الطبعة الرابعة. – 616 ص.
24. صالح ساسه. المنجد في الإعراب والقواعد والبلاغة والعروض. – دار الرائد الطباعة والنشر، 2007. – 400 ص.
25. ابن وهب. البرهان في وجوه البيان. – مصر: مكتبة الشباب، 2017. – 419 ص.
26. الحاج خليفة. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون. – ج. 1. – بيروت: لبنان، 2008.
27. Тариху улуми-л-балаға ва-т-таъриф би-рижалиҳа. Аҳмад Мустафо ал-Мароғий. Миср. 1950.